

ALISHER NAVOIY IJODIDA YUSUF (A.S.) OBRAZI TALQINI

Muratova Aziza Kamilovna,

Xalqaro Nordik universiteti

Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

azizamuratova3141@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodida e'tirof etilgan Yusuf (a.s.)ga munosabat va barcha davrlar uchun birday muhim bo'lgan komil inson mavzusi tahlilga tortilgan. Sharq tasavvuf adabiyoti, islom madaniyatidagi mavqeyi, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotida Yusuf (a.s.) mavzu, timsol, obraz sifatida talqin etilishi, badiiy o'xshatish vositasi sifatida qo'llanilishi o'ziga xos olam hisoblanadi. Bu obraz ramziy-majoziy tasvirlar ko'lami bilan komil ruh, axloqiy poklik va go'zallik timsoli uchun ibrat bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, Yusuf (a.s.), obraz, timsol, badiiy o'xshatish vositasi.

Аннотация

В данной статье анализируется отношение к Юсуфу (а.с.), признанное в произведениях Алишера Навои, и тема идеального человека, одинаково важная для всех времен. Литература восточного суфизма, ее положение в исламской культуре, особенно в узбекской классической литературе, трактовка Юсуфа (а.с.) как темы, символа, образа и использование его как средства художественного сравнения – это уникальный мир. Этот образ служит примером изображения совершенной души, нравственной чистоты и красоты в масштабе символических образов.

Ключевые слова: Суфизм, Юсуф (а.с.), образ, символ, инструмент художественного сравнения.

Abstract

This article analyzes the attitude towards Yusuf (a.s.) recognized in the work of Alisher Navoi and the theme of a perfect person, which is equally important for all eras. In Eastern mystical literature, its position in Islamic culture, in particular, in Uzbek classical literature, the interpretation of Yusuf (a.s.) as a theme, symbol, image, and use as a means of artistic comparison is a unique world. This image, with its range of symbolic and figurative images, serves as an example for the embodiment of a perfect soul, moral purity and beauty.

Key words: Sufism, Yusuf (a.s.), image, symbol, artistic metaphor.

Kirish. Adabiyot inson tafakkuri va his-tuyg‘ularining eng boy ifodasi bo‘lib, u madaniyatning asosi va jamiyatning ma‘naviy ozig‘i hisoblanadi. Adabiyot orqali xalqning ruhiy dunyosi, qadriyatlari va an‘anaviy merosi keyingi avlodlarga yetib boradi. Shuningdek, mumtoz adabiyotni o‘rganish, tadqiq qilish hamda mumtoz ma‘naviy boylikni kelajak avlodga tushunarli tarzda yetkazish adabiyotchilarning oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “...o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o‘ylaymanki, katta ahamiyatga ega”,– deb bejizga aytmagan edilar.

Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyoti va madaniyatining ulug‘ siymosi sifatida o‘z ichida chuqur ma‘no va ramziy obrazlarni mujassam etadi. Uning asarlarida ko‘plab diniy va falsafiy obrazlar, shuningdek, muqaddas qadriyatlarni o‘zida aks ettiruvchi timsollar orqali axloqiy va ruhiy mavzular keng yoritiladi. Shu jihatdan, Alisher Navoiy ijodida Yusuf (a.s.) siymosi alohida ahamiyatga ega. Uning Qur‘oni Karim va boshqa diniy manbalardagi siymosi Sharq madaniyati uchun o‘ta qimmatli bo‘lib, u adabiyotda go‘zallik, poklik va sabr-tahammul timsoli sifatida qabul qilingan. Shoir Yusuf (a.s.) obrazini o‘z asarlarida ko‘p o‘rinlarda badiiy o‘xshatish vositasi sifatida ishlatadi. Bu obrazni faqat tashqi go‘zallikning emas, balki ichki dunyoning, ruhiy go‘zallikning yuksak namunasi sifatida ifodalaydi. Yusuf (a.s.) siymosi o‘zining ham diniy, ham badiiy qirralari bilan adib asarlarida tarbiyaviy va estetik vazifalarni bajaruvchi kuchli obrazga aylangan. Ushbu maqolada Yusuf (a.s.) siymosining Alisher Navoiy ijodida o‘rganilishi, uning badiiy o‘xshatish vositasi sifatidagi ahamiyati tahlil qilinib, chuqur va keng ko‘lamda qo‘llanilganligi, uning badiiy o‘xshatish vositasi sifatida qanday rol o‘ynagani, shuningdek, ushbu siymo go‘zallik va ruhiy poklikka bo‘lgan ilohiy va falsafiy munosabatlarni qanday ochib bergani tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Alisher Navoiy ijodida obrazlarning badiiy talqini va poetik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar shoir asarlaridagi chuqur falsafiy va estetik tushunchalarni ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlar doirasida obrazlar tizimi Navoiy ijodidagi muhim unsurlardan biri sifatida chuqur tahlil etilgan va turli jihatlar bilan o‘rganilgan. Xususan, S.G‘aniyeva, I.Haqqul, S.Rafiddinov, N.Karimov, H.Karomatov, Sh.Sirojiddinov, R.Obidov, U.Qobilov, D.Salohiy, O.Davlatov, N.Ramazonov, D.Yusupova, Z.Rahmonova, M.Jabborova, M.Pardayeva, D.Abdullayeva va F.Ravshanovlarning tadqiqotlarida adib ijodi, obrazlarning badiiy talqini va poetik xususiyatlari batafsil tahlil qilingan. S.G‘aniyeva o‘z tadqiqotlarida Alisher Navoiy ijodidagi diniy va axloqiy

motivlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratib, obrazlarning badiiy talqini va uning shoir asarlaridagi o'rnini tahlil qilgan. Taniqli olim I.Haqqul esa asarlarida diniy obrazlar orqali berilgan falsafiy va estetik xususiyatlarni yoritib, Yusuf (a.s.) siymosini axloqiy poklik va sabr-matonat timsoli sifatida tahlil qilgan. Akademik N.Karimov Alisher Navoiy asarlarining poetik uslubini o'rganish bilan birga, uning ijodida Yusuf (a.s.) siymosining poetik talqinini ham keng yoritgan. D.Abdullayeva va F.Ravshanovlarning katta-kichik tadqiqotlari ham Alisher Navoiy ijodidagi diniy va axloqiy obrazlarning o'rnini ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, ular Yusuf (a.s.) siymosining tasvirida ko'rinadigan badiiylilik va chuqur ma'naviy mazmunlarni tahlil etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Alisher Navoiy ijodida Yusuf (a.s.) siymosi o'ziga xos, chuqur ma'no va ramziylikka ega obrazlardan biridir. Yusuf (a.s.)ning Qur'oni Karim va boshqa diniy manbalardagi qissalari Sharq adabiyotida keng o'rin olgan va ideal go'zallik, axloqiy poklik, sabr-toqat kabi fazilatlar timsoli sifatida talqin qilingan. Yusuf payg'ambar haqidagi qissa islom madaniyati, adabiyoti va tasavvufda qimmatli manba hisoblanadi. Tasavvuf adabiyotida ham Yusuf (a.s.)ning obrazi alohida mavqega ega. U orqali ko'plab ilohiy tushunchalar ifodalanadi. Uning zindonda bo'lgan vaqtidagi sabri va Allohga bo'lgan cheksiz ishonchi musulmon jamiyatida taqvodor insonlar uchun ilhom manbasi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, Yusuf (a.s.) siymosi tarixi nafaqat diniy, balki estetik jihatdan ham yuqori baholanadi. U Sharq adabiyotida go'zallikning oliy namunasi sifatida qabul qilinib, ko'plab shoir va adiblar tomonidan ideal go'zallik va axloqiy komillik ramzi sifatida qabul qilingan. Bu ramziy obraz orqali go'zallikni, poklikni, axloqiy yetuklikni ifodalash uchun o'z asarlarida Yusuf (a.s.) timsolini badiiy o'xshatish vositasi sifatida qo'llashgan.

Alisher Navoiy ijodida Yusufi Kan'on qissasi talqini alohida o'ringa ega hisoblanadi. Ushbu qissa mohiyat-e'tibori bilan dunyo xalqlari badiiy adabiyotini maftun etgan mavzulardan sanaladi. E'tiborlisi, bir tomondan, qissa jahonshumul mavqega ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu syujet ham omma, ham xoslar uchun birdek hayotbaxsh xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Adib o'zining "Xamsa" dostonini yozar ekan, o'zining husn-malohatda tengi yo'q qahramonlarini, ularga oshiq bo'lganlarning boshiga tushgan ko'rguliklarini ta'rif-u tavsifini berishda Yusuf siymosiga ishora qilgani bejiz emas.

Bo'riga sharh etib gah arzi holin,

To'kub yosh, yod etib Yusuf jamolin [1, 263].

Shoir bu yerda Farhodning bo'riga o'z alamlarini aytib dardlashishini tasvirlar ekan, bo'ri haqida so'zlab Yusufi Kan'onni yodga oladi. Rivoyatga ko'ra, Yusufning og'alari uni chohga tashlab, ko'ylagini qonga belab, Yusufni bo'ri yedi, – deb otalariga eltadilar. Zeroki, yuqoridagi mazmun asosiy maqsad bo'lsa ham, baytda birinchi idrok etiladigan ma'no Farhodning Yusufdek go'zal chiroyi bor Shirinni yodlashidir. Yusuf siymosi orqali shoir o'zining go'zallik, sabr-toqat, axloqiy mustahkamlik kabi

mavzularni o'quvchilarga yetkazishga intiladi. Alisher Navoiy Yusuf siymosini o'z qahramonlari uchun oliy fazilatlar namunasi sifatida talqin etib, uni inson ruhiyatining eng yuksak darajasi sifatida ta'riflaydi.

Tahlil va natijalar. Shoir ayrim g'azallarida Yusuf (a.s.) obrazini nafaqat go'zallik timsoli, balki qahramonning bevosita tasviri sifatida ham qo'llaydi. Bu kabi o'xshatishlar orqali shoir ma'shuqaning go'zalligini ulug'lash bilan birga, Yusufning go'zalligi orqali insoniy muhabbatning ilohiy qiyofasini yaratishga harakat qiladi.

*Tushumda la'li-yu ruxsorida, uyg'otmang meni, gar xud,
Masiho birla Yusuf boshim uzra yetsalar nogah* [5, 365].

Ushbu misrada tushdagi la'l va ruxsor, ya'ni lab va yuz obrazlari ma'shuqaning go'zalligini ifoda etmoqda. Yor shu qadar go'zalki, hatto husnda Yusufdan ham barkamol. Shu sababli shoir bu jamolni yo'qotib qo'ymaslik uchun hatto Yusuf kelsa ham meni uyg'otmang, deydi. Bu yerda Yusuf timsoli orqali shoir yorning naqadar barkamol husn-u jamol sohibi ekanligini ifodalaydi.

*Zarrayi mehri jamoling Yusuf
Topibon olam elin zor etti.*

Bu misrada ham Navoiy Yusuf siymosini go'zallikning eng oliy timsoli sifatida yorning jamoliga o'xshatadi. Yusufning go'zalligi o'z vaqtida odamlarni hayratga solgani kabi yorning husni ham barchani oshufta qilganini aytadi. Bu tasvir bilan Navoiy yor go'zalligining shunchalik yuksak ekanligini aytar ekan, barcha ayollarning Yusuf go'zalligi qarshisida hushidan ketib, unga oshiq bo'lishiga ishora qiladi. Yusuf siymosi shu orqali yor jamolining "olam elin zor" etadigan qadar kamoli husn ekanligini chuqurroq ifodalashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari o'z g'azallarida Yusufning birodarlari tomonidan quduqqa tashlanishini ham badiiy o'xshatish vositasi sifatida qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda lirik talqinlarda "choh" timsoli ham bir badiiy detal sifatida ishlatiladi. Masalan:

*Kirpiging tushgan ko'ngul ichra xayoling, ey pari,
Go'yiyo Yusuf nuzul etmish chahi Bobil aro* [5,24].

Bu misrada Yusuf (a.s.) siymosidan badiiy o'xshatish vositasi sifatida foydalanib, ma'shuqaning tasvirini yaratadi. "Go'yiyo Yusuf nuzul etmish chahi Bobil aro" deb Yusufning Bobilda chohga tashlanganiga ishora qiladi. Shu bilan birga, ma'shuqaning jamoli Bobil chohiga tashlangan Yusufga o'xshatiladi. Bu tasvir orqali adib Yusuf qissasiga badiiy yo'sinda murojaat etgan. Bu kabi yorning husnini Yusuf jamoliga o'xshatish orqali tasvirlash holatlari shoir g'azallarida ko'plab uchraydi.

*Olamoro husn ila jonbaxsh nutqungmu ekin,
Yo Masiho ruhi Yusuf jismida qilmish hulul?* [5, 232]

Bu misralarda Yusuf (a.s.) va Iso (a.s.) siymolarini uyg'unlashtirgan holda go'zallik va maftunkorlikni ilohiy darajada tasvirlaydi. "Olamoro husn ila jonbaxsh

nutqungmu ekin” misrasi orqali shoir ma’shuqaning husni olamni o’ziga rom qiladigan darajada go’zal ekanini va uning so’zlarida jon ato etuvchi bir kuch borligini aytgan holda yor husnini Yusuf go’zalligiga, jonbaxsh so’zlarini esa Iso Masihning tiriltiruvchi xususiyatiga o’xshatadi. Bunday badiiy o’xshatish orqali Navoiy ma’shuqaning jozibasini shunchalik yuqori darajaga olib chiqadiki, u go’yo Yusufning go’zalligi va Masihning ruhini bir vaqtda o’zida mujassam etgandek tasvirlanadi. Alisher Navoiy Yusuf (a.s.)ni go’zallikning eng yuksak timsoli deb bilishiga qaramay, yorining husnini tasvirlash uchun ba’zi o’rinlarda hatto uning go’zalligini yetarli deb hisoblamaydi.

Yusuf ermas chun malohatda jamoling shabih,

Husnungga ani malih o’lmag’ay etsam tashbih [6, 478].

Alisher Navoiyga ko’ra, yorining husni shu darajada betakror va ulug’ki, Yusufga qiyos qilish ham yetarli bo’lmaydi. Bu orqali shoir yor go’zalligini ilohiy darajaga olib chiqadi hamda Yusuf (a.s.) obrazining cheklanganligini ta’kidlaydi va sevgan kishisining jozibasini tasvirlash uchun undan-da yuksakroq bir badiiy ifoda zarurligini aytadi.

Ko’rinadiki, Yusuf (a.s.) timsolidan faqatgina yor jamolini tasvirlash uchungina foydalanmasdan o’zining dard-anduhlari, hijron onlarini ifodalashda ham Yusuf (a.s.) timsolidan badiiy tasvir vositasi sifatida foydalanganini ko’rishimiz mumkin.

Yor hajrig’a davo guldin emaskim, bermas

Kimsaga Yusuf isi qon aro har pora qamis [6, 247].

Bu o’rinda Alisher Navoiy Yusuf siymosini sevgining hijron va azoblarini ifodalovchi badiiy o’xshatish vositasi sifatida qo’llaydi. Misrada “*Yor hajrig’a davo guldin emaskim*”, deb shoir yor hajrining davosi oddiy bir guldan yoki yengil ta’sir qiluvchi narsadan emasligini ta’kidlaydi. Bu dard shunchalik chuqurki, u davosiz bir iztirobdir. “*Kimsaga Yusuf isi qon aro har pora qamis*” misrasida esa Yusuf qissasiga murojaat qilinib, Yusufning qoni va uning yirtib tashlangan ko’ylagi ramz sifatida keltiriladi. Bu tasvirda Yusufning aka-ukalari tomonidan quduqqa tashlanib, ko’ylagining qon bilan bo’yalib otasiga berilgan holatga ishora qilinadi. Yusufning qonli ko’ylagi otasi Yoqub (a.s.) uchun o’g’lining ayriliq azobini bildiruvchi, hijronni ifodalovchi bir belgi hisoblangani kabi shoir ham bu tasvir orqali, o’z hijronining xuddi shunday, qayta-qayta joniga og’riq beruvchi, ishq azobining kuchli darajasi ekanligini ta’kidlaydi. Mutafakkir bunday tasvir orqali hijron azobini, o’z kechinmalarini yanada ta’sirchan qilib ifodalashga harakat qiladi.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida Yusuf (a.s.) siymosining badiiy o’xshatish vositasi sifatida qo’llanilishi keng tahlil qilindi. Yusuf payg’ambar obrazini go’zallik, sabr-toqat, axloqiy poklik va ma’naviy yuksaklik timsoli sifatida tasvirlab, o’z asarlarida unga alohida o’rin ajratgan. Shoir Yusuf (a.s.) orqali komillik va axloqiy idealni ifodalab, bu obrazni ma’naviy yetuklik va ilohiy ilhom manbai sifatida qabul qiladi. Yusuf (a.s.) obrazining adib asarlarida ko’p qirrali va

chuqur ma'no kasb etishi, shoirning bu siymo orqali go'zallik, poklik va axloqiy yetuklikni badiiy yuksaklikda ifodalashga erishganligini namoyon etadi. Shuningdek, maqola davomida Yusuf (a.s.) qissasining estetik vazifalari, badiiy talqin va o'xshatish vositasi sifatidagi rolga ham alohida urg'u berildi. Ushbu maqola kelgusida Alisher Navoiy ijodidagi boshqa diniy siymolarni o'xshatish vositasi sifatida tahlil qilish hamda diniy obrazlarning zamonaviy adabiyotga ta'sirini o'rganish kabi tadqiqotlarda kichik yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI / (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES

1. Muratova, A. K. (2023). "MAORIF VA O 'QUTG 'UCHI'" JURNALIDA ZAMONDOSH ADIBLAR IJODINING TALQINI. GOLDEN BRAIN, 1(9), 115-121.
2. Muratova, A. K. (2022). Muratova Aziza Kamilovna Mirzo Ulug 'bek. RESEARCH AND EDUCATION, 1(1), 193-200.
3. Shomurodova, S. (2024). Zamonaviy o'zbek shoirlarining devonlarida vazn masalasi (aruz vazni bo'yicha). Nordic_Press, 1(0001).
4. Shomurodova, S. (2024). Erkin Vohidov qasidalarining maktab ta'limidagi ahamiyati: Erkin Vohidov qasidalarining maktab ta'limidagi ahamiyati. Nordic_Press, 1(0001).
5. Шомуродова, С. Х. (2020). ЭРКИН ВОҲИДОВ ҒАЗАЛЛАРИДА ТАЛМЕҲ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(5).
6. Vokhidova, N. K., Khalikova, Z. M., Islamova, F. S., & Abdulkhayeva, M. B. (2024). Organization Of The Educational Process In Primary Education With The Participation Of Artificial Intelligence. Educational Administration: Theory and Practice, 30(4), 1906-1909.
7. Obidjon o'g'li, Y. O. (2024). MATN TAHLILIDA TERMINOLOGIYA MASALASI. «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS», 2(22.04), 79-82.

8. Obidjon o'g'li, Y. O., & Xolmirzayevna, R. Z. (2023, April). KORPUS–
TABIIY TILLARNING MILLIY XUSUSIYATINI SAQLAB QOLISHDA
MUHIM INSTRUMENT. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC
CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1,
No. 14.04, pp. 61-64).